

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

EGAMQULOV HUSNIDDIN ERKABOYEVICH

**“SIRDARYO VILOYATINING NOZOEKOLOGIK VAZIYATI VA AHOLI
SALOMATLIGINI HUDUDIIY XUSUSIYATLARI
(BOYOVUT TUMANI MISOLIDA)”**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Egamqulov Husniddin Erkaboyevich

Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy xususiyatlari (Boyovut tumani misolida) 3

Эгамкулов Хусниддин Эркабоевич

Нозоэкологическая ситуация и территориальные особенности здоровья населения Сырдарьинской области (на примере Баяутского района)..... 19

Egamkulov Husniddin Erkaboyevich

Nosoecological situation of Syrdarya region and territorial characteristics of population health (in the case of Boyovut district) 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

EGAMQULOV HUSNIDDIN ERKABOYEVICH

**“SIRDARYO VILOYATINING NOZOEKOLOGIK VAZIYATI VA AHOLI
SALOMATLIGINI HUDUDIIY XUSUSIYATLARI
(BOYOVUT TUMANI MISOLIDA)”**

11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Gr199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Komilova Nilufar Karshiboyevna geografiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Turdimambetov Izimbet Rahmetovich geografiya fanlari doktori, professor Ravshanov Alliqul Xudoyberdiyevich geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 9-fevral soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-16-36, faks: (+99866) 239-11-40; e-mail: ik-geografiya2018@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№4 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 29-yanvar kuni tarqatildi.
(2024-yil 24-yanvardagi 54-raqamli restr bayonnomasi).



S.B.Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
g.f.f.d. PhD.

A.Abdulqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon aholisining tez sur'atlarda o'sib borishi, global iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq holda kasallanish va o'lim holatlarini kamaytirish zaruriyati nafaqat mintaqa, qolaversa xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) prognozlariga ko'ra, 2048-yilda dunyo bo'yicha o'limning umumiy soni 90 millionga yetadi.¹ Mazkur muammo kelgusida aholi salomatlikni mustahkamlash, farovonlik va o'rtacha umr davomiyligini oshirish uchun aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash, undan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, hududlar ekologik holatini barqarorlashtirish va yaxshilashni taqozo etadi.

Jahonda aholi salomatligi va kasalliklarning hududiy jihatlarini baholovchi tibbiy geografik izlanishlar, ayniqsa, salomatlikning ekologiya bilan bevosita aloqadorligini ta'minlovchi, aholi uzoq umr ko'rishi, o'lim va kasallanish ko'rsatkichlari hamda geografik omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shunga bog'liq holda tabiiy omillarning kasalliklar kelib chiqishiga aloqadorligini aniqlash, ular ta'sirida yuzaga keladigan alohida kasallik turlarini klassifikatsiyalash, kasallik o'choqlarini aniqlashda matematik-statistik ham GIS metodlarni qo'llash va kasalliklar tarqalishini oldini olishning kompleks yechimlariga erishishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda aholi salomatligini yanada mustahkamlash, sog'liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, muttasil ortib borayotgan kasallik turlarini kamaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid qator islohatlar amalga oshirilib muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish"² kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada 2030-yilgacha onalar o'limi ko'rsatkichini uchdan bir baravarga qisqartirish, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasidagi o'limni ikki baravarga kamaytirish, aholining tuberkulyoz va OIV bilan zararlanish darajasini kamaytirish hamda suv orqali yuqadigan gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni ta'minlash, aholi o'rtasida yurak-qon tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals file:///C:/Users/User/Downloads/9789240074323-eng.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2018-yil 7-dekabr “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021- yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3071-son, 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-4890-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishning yangi modeli-Guliston tibbiyot klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №318-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon va Qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” va VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Atrof-muhit va uning ifloslanishining oldini olish, aholi salomatligini o‘rganish, baholash, hududlar nozoekologik vaziyatni optimallashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi tashkilotlari, ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan: University of Southampton, Ohio State University, Michigan State University, Cambridge University, University of California Berkeley, University of Florida (AQSh) , University of London, Moskva davlat universiteti (Rossiya) va boshqa tadqiqot markazlarida olib borilmoqda. Ta‘kidlash zarurki, nozoekologik tadqiqotlar, ya‘ni aholining kasallanish ko‘rsatkichlari hamda ularning hududiy tarkibi masalalari xorijiy olimlar orasida J.May, Melinda S.Meade, Amber Pearson, Elisabeth Dowling Root, Michael E.Emch asarlarida uchraydi. Bunday tadqiqotlar chor Rossiyasi, keyinchalik sobiq Ittifoq olimlari jumladan, D.K.Zabolotniy, Y.N.Pavlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.P.Avsin, Y.I.Ignatev, B.B.Proxorov, Y.L.Rayx, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov, N.F.Reymers, V.P.Kaznacheyev va boshqa olimlarning ishlarida keltirilgan. Yuqorida qayd etilgan olimlarning har biri tibbiyot geografiyasining u yoki bu tarmog‘i rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Chunonchi, B.B.Proxorov asarlarida nozoekologiya atamasiga ta‘rifi keltirilgan, uning maqsad va vazifalari aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizda ko‘rilayotgan muammoga bevosita va bilvosita aloqador masalalarni o‘rganish bilan X.T.Tursunov, N.K.Komilova, I.R.Turdimambetov, M.Hamroyev, A.X.Ravshanov, N.J.Muxammedova, Z.D.Tillyaxodjayeva singari

mutaxassis olimlar shug'ullanishgan. Shuningdek, nozoekologiyaga biroz yaqin sohalar, jumladan geoeologik tadqiqotlar A.A.Rafiqov, A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, S.B.Abbasov, A.N.Nigmatov, A.K.Urazbayev, V.A.Rafiqov, Q.S.Yarashev kabi geograf olimlar o'z e'tiborlarini qaratishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 024 raqamli "Mirzacho'l vohasining tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularni muhofaza qilish chora tadbirlari" mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Sirdaryo viloyati va uning muhim ma'muriy-hududiy birliklaridan biri hisoblangan Boyovut tumani nozoekologik holatini baholash va prognoz qilish asosida viloyat aholisi salomatlik holatini yaxshilash bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sirdaryo viloyati nozoekologik holatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda uni asoslovchi turkum xaritalar yaratish;

nozoekologik vaziyat va aholi salomatligi o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni aniqlash;

Boyovut tumani nozoekologik vaziyatni sotsiologik tadqiqot orqali o'rganish, aholi salomatlik darajasi OP (oilaviy poliklinika) va OShP (Oilaviy shifokorlik punkti) kesimida integral baholash;

aholi kasalliklarining hududiy tarkibining 2026-yilgacha prognozini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Sirdaryo viloyati va Boyovut tumani hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Sirdaryo viloyati nozoekologik vaziyati va aholi salomatligi bilan bog'liq muammolarning geografik jihatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada hududiy tahlil, statistik tahlil, kartografik, tarixiy, geografik taqqoslash, sotsiologik so'rov, ekspert baholash, ekstrapolyatsiya usullaridan foydalanilgan. Kartalar maxsus "ArcGIS" dasturidan foydalangan holda yaratilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba yaratilgan O'zbekistonning tibbiy geografik web atlasini tarkibida Sirdaryo viloyati nozoekologik vaziyatini asoslovchi turkum xaritalar yaratilgan;

Sirdaryo viloyati nozoekologik holati va aholi salomatligi, kasalliklarning hududiy tarkibi baholangan, ular o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik (viloyat va Boyovut tumani misolida) ochib berilgan;

Boyovut tumani nozoekologik vaziyati sotsiologik tadqiqot orqali aniqlangan, aholi salomatlik darajasi oilaviy poliklinika (OP) va oilaviy shifokorlik punktlari (OShP) kesimida baholangan;

Sirdaryo viloyati hamda Boyovut tumani aholisi kasalliklari hududiy tarkibining 2026-yilgacha (o'rta muddatli) prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning tibbiy geografik web atlasini tarkibida Sirdaryo viloyati nozoekologik vaziyatini asoslovchi turkum xaritalar yaratilgan;

ArcGIS dasturi asosida viloyat va tuman chegaralarini raqamlashtirish

(vektorlash) amalga oshirilgan, kasalliklar bo'yicha statistik ma'lumotlar atribut jadvallari shakllantirilgan;

Sirdaryo viloyati aholisining nafas olish tizimi kasalliklariga chalinishining 1:350 000 masshtabli xaritasi yaratilgan;

statistik va sotsiologik ma'lumotlar asosida Boyovut tumani aholisi salomatligining hududiy tafovutlari aniqlanib, KTMP (ko'p tarmoqli markaziy poliklinika), OP (oilaviy poliklinika), OShP (oilaviy shifokorlik punkti) lari tibbiy geografik holati reytingi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Sirdaryo viloyati boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmatining Sirdaryo viloyati ma'lumotlari hamda sotsiologik so'rov ishlari asosida bajarilganligi, ishlab chiqilgan mavzuli xaritalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati ilmiy-nazariy xulosalar, tavsiyalar, kartografik va boshqa birlamchi materiallar, Sirdaryo viloyati aholisi salomatligini kompleks baholash, tibbiy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha metodik yondashuvlarni takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati Sirdaryo viloyati va uning ma'muriy-hududiy birliklari aholisi salomatligini kompleks baholashga, tibbiy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish hamda yaratilgan O'zbekistonning tibbiy geografik web atlasidan tibbiyot sohasi hodimlari, oliy ta'lim ta'labalari foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy xususiyatlari" bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekistonning tibbiy geografik web atlasida Sirdaryo viloyati nozoekologik vaziyatini asoslovchi turkum xaritalar hamda kasalliklar hududiy tarkibini asoslovchi tibbiy geografik ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 29-avgustdagi 20943-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 17-maydagi 04/11-2971 ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur viloyat va uning tumanlari kesimida kasalliklar tur va tarkibi mavzusidagi kartalarning ma'lumotlar bazasini boyitish imkonini bergan;

Sirdaryo viloyati nozoekologik holati va aholi salomatligi, kasalliklarning hududiy tarkibi, ular o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni (viloyat va Boyovut tumani misolida) aniqlashga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 29-avgustdagi 20943-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat tumanlari kesimida tabiiy iqlim sharoitning aholi salomatligi va kasalliklar hududiy tarkibiga ta'sirini qiyosiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlarda baholash imkonini bergan;

Boyovut tumani nozoekologik vaziyatining sotsiologik tadqiqot orqali o'rganish, aholi salomatlik darajasi oilaviy poliklinika (OP) va oilaviy shifokorlik punktlari (OSHP) kesimida baholash, aholi salomatligining integral diagnostikasi va reytingiga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 29-avgustdagi 20943-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududlardagi aholi salomatlik holatini kompleks baholashda rasmiy statistik ma'lumotlardan tashqari sotsiologik ma'lumotlardan ham unumli foydalanish imkonini bergan;

Viloyat aholisi kasalliklari hududiy tarkibining 2026-yilgacha ishlab chiqilgan prognozi asosida Sirdaryo viloyati ma'muriy-hududiy birliklari aholisining salomatlik holatini hamda nozoekologik vaziyatda yetakchilik qiluvchi kasalliklarni aniqlashga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 29-avgustdagi 20943-son ma'lumotnomasi). Natijada, ular asosida viloyatda istiqbolli tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yishga imkon yaratdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududlar nozoekologik holatini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida nozoekologiya ya'ni ekologik muhit ta'sirida aholi kasalliklar hududiy tarkibidagi o'zgarishlar sohasini tadqiq qilishning ilmiy-nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari, nozoekologik holatni o'rganishda zamonaviy yondashuvlar, ekologiya, ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi va nozoekologiyaning o'zaro o'xshashliklari, farqlari, sivilizatsiya

kasalliklari, shahar, shu bilan birga qishloq joylar uchun xos turmush tarzi hamda uning oqibatlarini yoritilgan.

Ma'lumki, nozoekologiya (kasalliklar ekologiyasi) – aholi orasida uchraydigan kasalliklar va ularning tabiiy o'choqlari, kasalliklarning kelib chiqish sabab hamda tarqalish qonuniyatlarini o'rganadi. Mazkur fan obyekti epidemiologiya obyektidan farqli ravishda nafaqat zooantroponozlar, antroponozlar, endemik kasalliklar, shuningdek, onkologik va yurak, qon-tomir hamda boshqa patologiyalarni ham o'z ichiga oladi. Nozoekologiya – tibbiyot geografiyasining kasalliklar tarqalishi bilan shug'ullanuvchi asosiy tarmog'i hisoblangan nozogeografiyaning o'ziga xos yo'nalishidir. U ayni vaqtda turli geografik hududlarda tabiiy va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan ekologik o'zgarishlar oqibatida kelib chiqqan kasalliklar hududiy tarkibini o'rganadi. Nozoekologiyaning asosiy vazifalari quyidagilar: inson salomatligi holatini o'rganish; tabiiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatlarining insonlar salomatligiga ta'sirini o'rganish; inson salomatligi holatini prognoz qilish; atrof-muhitning individual omillari, mazkur omillar tarkibiy qismlarining inson populyatsiyalari (shahar, qishloq va boshqalar) salomatligi va hayotiy faoliyatiga ta'sirini o'rganish; aholining salomatligi, ijtimoiy va mehnat salohiyatini saqlash, uni tiklash jarayonlarini o'rganish; inson ekologiyasining global va mintaqaviy muammolarini tahlil qilish; antropoekologik monitoring olib borish ya'ni insonlarning hayotiy jarayonlaridagi o'zgarishlarni ularga turli xil ekologik omillarning ta'siri bilan bog'liq holda tahlil qilish; ekologik muhit ta'sirida kelib chiqqan aholi kasalliklarining hududiy tabaqalanishini aks ettiruvchi tibbiy-geografik xaritalarni tuzish va h.k.

Nozoekologiya, inson ekologiyasi, shuningdek uning tibbiy geografiya hamda tibbiy kartografiyaga oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlanishida uzoq xorij olimlaridan J.May, Melinda S. Meade, Amber Pearson, Elisabeth Dowling Root, Michael E.Emch, bugungi kunda Rossiyada jumladan Y.I.Ignatev, B.B.Proxorov, Y.L.Rayx, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov, V.P.Byakov, S.Malxazova singari olimlar o'z hissasini qo'shganlar. Ko'plab olimlar tomonidan inson ekologiyasi va nozoekologiya sohasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Aytish joizki, *“kasalliklar ekologiyasi”* atamasi ilk bor amerikalik tadqiqotchi Jak May (fransuz, AQSH fuqarosi, Vetnamda harbiy shifokor bo'lib ishlagan) tomonidan o'tgan asrning o'rtalarida ishlatilgan. Olim o'zining *“Inson kasalliklari ekologiyasi”* (Nyu-York, 1958-y.), *“Inson kasalliklarini o'rganish”* (Nyu-York, 1961-y.) singari asarlarida nozoekologiyaning nazariy asoslarini yaratdi. Uning fikricha *“...insoniyat taraqqiyoti o'z navbatida joylarning ekologik holati bilan birinchi galda hisoblashishi kerak. Aks holda avvalgi davrlarga xos va mos bo'lmagan yangidan yangi kasalliklarning shakllanishi shubhasiz”*. Jak May tomonidan zooantroponozlarni o'rganishdagi paydo bo'lgan fikrlar, o'z navbatida kasalliklarning boshqa guruhlarini o'rganishga asos bo'lgan. Bizningcha, *nozoekologiya* bu – ekologik muhit ta'sirida aholi orasida uchraydigan kasalliklar hududiy tarkibini o'rganuvchi nozogeografiyaning alohida bir tarmog'idir.

Ma'lumki, so'nggi yillarda respublikamiz hududlaridagi ekologik vaziyatdagi o'zgarishlar oqibatida aholining umumiy kasallanishi ortib borgan. Masalan, 2000-

yilda bu ko'rsatkich 40854,8 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2010-yil 46880,8 ga ko'tarildi. 2020-yilga kelib 56578,5 miqdor qayd etildi. Statistik ma'lumotlar aholining kasallanish darajasi davriy ravishda ortib borganligini ko'rsatmoqda. Shu bois vaziyatni yanada yaqqol ko'rish maqsadida olimlar³ tomonidan O'zbekistonning tibbiy-geografik web-atlasi ishlab chiqildi.

Olimlar guruhi tomonidan kasalliklar tahlili bo'yicha geoportalni ishlab chiqish uchun maket va shunga mos dizayn tayyorlandi hamda foydalanishga qulay interfeys ishlab chiqildi. Tasvirlanadigan obyektlarning asos xaritalari, obyektlarning matematik asosi (koordinata, proyeksiya, masshtab) tayyorlandi. ArcGIS dasturi asosida tumanlar, viloyatlar va respublika chegaralarini raqamlashtirish (vektorlash) amalga oshirildi, kasalliklar bo'yicha statistik ma'lumotlar atribut jadvallari shakllantirildi. ArcGISdasturida yaratilgan geografik mavzuli ma'lumotlarni OpenStreetMapga konvertatsiya qilindi (1-rasm).




1-rasm. Kartografik web-atlasni yaratish sxemasi

OpenStreetMap dasturiy platformasi asosida web-ilova ishlab chiqildi. Kasalliklar bilan kasallanish dinamikasi va shunga o'xshash barcha turdagi turli-xil statistik ma'lumotlarni viloyatlar kesimida geoportalga joylashtirishning dasturiy moduli ishlab chiqildi. Xuddi shunday elektron raqamli xaritalarni geoportalga joylashtirish dasturiy modulini ham tayyorlandi.

Mazkur xaritalarga viloyatlar va tumanlar darajasida kasalliklar sinflari hamda turlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi joylandi (2-rasm).


³ Komilova N., Karshiboyeva L., Safarova N., Egamqulov H. O'zbekiston Respublikasining tibbiy-geografik WEB atlas. – T.,2023. <http://tgwebatlas.uz/>



2-rasm. Tibbiy-geografik web-atlasi tarkibidagi Sirdaryo viloyati uchun xos xaritalar

Dissertatsiyaning “**Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyat va aholi kasalliklarini hududiy tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida viloyat nozoekologik holatining taʼsir etuvchi geografik omillari, aholining oʻlim koʻrsatkichlari, yetakchi kasallik sinflari va turlariga asosiy eʼtibor qaratildi. Viloyat xoʻjaligi va uning ixtisoslashuvi, qolaversa, soʻnggi yillarda ekologik vaziyatning oʻzgarishi bilan bogʻliq aholining umumiy kasallanish holatlarida ham oʻziga xos oʻzgarishlar kuzatildi. Viloyat aholisining umumiy kasallanish koʻrsatkichi 2015-yilga nisbatan 2021-yilda biroz oshganligini koʻrishimiz mumkin. 2015-yilda umumiy kasallanish koʻrsatkichi 442423 kishini tashkil qilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2021-yilda 487727 kishiga oshgan. Yillar orasidagi oʻzgarish indeksi 1,1 nisbatga teng. Sirdaryo viloyatining, ayniqsa, Xovos, Boyovut tumanlari nozoekologik holatiga ana shu hududlarda esuvchi shamolning ham taʼsiri katta boʻlib, natijada baʼzi kasallik sinflari va turlari salmogʻi oshgan.

Aytish joizki, mahalliy “Bekobod” (Xovos) shamolining qish faslida oʻrtacha tezligi 30-40 metr sekundga yetadi. Bu oʻz navbatida nafaqat mintaqa xoʻjaligiga, qolaversa aholi orasida ayrim kasalliklar sonining koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Shamol oʻz yoʻnalishi boʻyicha Bekobod shahrida faoliyat koʻrsatayotgan sanoat korxonolari va Shirin shahridagi IESdan chiqayotgan zaharli birikmalarni Boyovut, Xovos tumanlariga va Yangiyer shahriga olib kelmoqda. “Bekobod shamoli” tezligi yuqori boʻlganli bois atrof-muhitga turli chang zarralarining koʻtarilishi aholining bronxial astma, allergik rinit, allergik konyuktivit bilan bogʻliq kasallanish koʻrsatkichlari birmuncha ortishi kuzatilmoqda (3-rasm).



3-rasm. Sirdaryo viloyati aholisining nafas olish tizimi kasalliklariga chalinishi

2011-yilda mazkur kasallik bilan og'riqanlar 439 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 687 tani, 2021-yilda esa 1088 nafarga ortgan. 2011-yildan 2021-yilgacha allergik kasalliklar soni 2,4 nisbatga o'zgarganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Hududlar nozoekologik holatini baholashda bir necha omillar hisobga olinadi. Shunday omillardan biri atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar miqdoridir.

Keyingi o'n yil mobaynida ya'ni 2010-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda viloyat bo'yicha ushbu ko'rsatkich 21,0 dan 75,3 tonnagacha ortganligini va uning asosiy qismi ya'ni 66,1 ming tonnasi energetika korxonalarini hissasiga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin.

Ayniqsa, viloyat atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar miqdorining 90 foizdan ortiq qismi uning yuqori darajada sanoatlashgan Shirin shahri hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari mazkur bobning ikkinchi bandida Boyovut tumanining nozoekologik holati atroflicha tahlil qilingan. Unda tuman nozoekologik vaziyati va unga ta'sir etuvchi ekologik omillar, tumanning nozodemografik holati baholangan.

Tadqiqot davomida viloyat va tanlab olingan Boyovut tumani nozoekologik holati, aholi kasallanishi bilan aloqador korrelyatsion bog'liqliklar ochib berildi (1;2-jadvallar). Korrelyatsiya koeffitsiyenti [-1;1] oraliqda qiymat qabul qiladi

hamda ikki miqdor orasidagi bog‘liqlik darajasini bildiradi. Natija Cheddok shkalasi bo‘yicha aniqlandi.

1-jadval

Sirdaryo viloyatida atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar va turli kasalliklar orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik

Korrelyatsiya koeffitsiyenti	Zararli moddalar miqdori	Allergik kasalliklar	Qon aylanish tizimi kasalliklari	Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari	Aholining asosiy kasallik guruhlari bo‘yicha kasallanishi
Zararli moddalar miqdori	1				
Allergik kasalliklar	0,916	1			
Qon aylanish tizimi kasalliklar	0,581	0,608	1		
Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari	0,819	0,826	0,516	1	
Aholining asosiy kasallik guruhlari bo‘yicha kasallanishi	0,879	0,842	0,693	0,825	1

Jadval statistik ma’lumotlar va tadqiqot davomida amalga oshirilgan korrelyatsion bog‘liqlikka doir tahlillar asosida muallif tomonidan tuzildi

2-jadval

Boyovut tumanida atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar va turli kasalliklar orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik

Korrelyatsiya koeffitsiyenti	Zararli moddalar miqdori	Allergik kasalliklari	Ko‘z va uning qo‘shimcha kasalliklari	Qon aylanish tizimi kasalliklari	Nafas olish a‘zolari kasalliklari
Zararli moddalar miqdori	1				
Allergik kasalliklari	0,845	1			
Ko‘z va uning qo‘shimcha kasalliklari	0,881	0,928	1		
Qon aylanish tizimi kasalliklari	0,863	0,748	0,885	1	
Nafas olish a‘zolari kasalliklari	0,904	0,778	0,928	0,897	1

Jadval statistik ma’lumotlar va tadqiqot davomida amalga oshirilgan korrelyatsion bog‘liqlikka doir tahlillar asosida muallif tomonidan tuzildi

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Sirdaryo viloyatining nozoekologik muammolari va aholi salomatligini yaxshilashning istiqbol yo‘nalishlari” deb nomlangan. Ushbu bobda viloyat va tanlab olingan tuman nozoekologik holati sotsiologik tadqiqot asosida o‘rganilgan.

Boyovut tumani KTMP (ko'p tarmoqli markaziy poliklinika), OP (oilaviy poliklinika), OShP (oilaviy shifokorlik punkti)lari tibbiy geografik holatini integral baholash ko'rsatkichlari

Boyovut tumani KTMP (Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika), OP (Oilaviy poliklinika), OShP (Oilaviy shifokorlik punkti)lari	Aholi kasallanish ko'rsatkichlari			O'lim ko'rsatkichlari			Tibbiy xizmat ko'rsatkichlari		Ijtimoiy infratuzilma ko'rsatkichlari		Integral ko'rsatkich	Boyovut tumaniga nisbatan	Keyting o'rni va daraja
	Birlamchi kasallanish yig'indisi 1000 kishiga nisbatan	Boyovut tumaniga nisbatan	Teskari koeffitsiyent	O'lim koeffitsiyentlari yig'indisi	Boyovut tumaniga nisbatan	Teskari koeffitsiyent	KTMP OP, OShP larning qabul qilish quvvati (1000 kishiga nisbatan)	Boyovut tumaniga nisbatan	KTMP OP, OShP xizmat ko'rsatishning o'rta radiusi (km)	Boyovut tumaniga nisbatan			
KTMP	404,3	0,80	1,20	5,87	1,24	0,76	21,5	1,56	5,0	2,94	6,46	1,60	1 y
1-sonli OP	805	1,60	0,40	5,91	1,25	0,75	14,6	1,06	2,5	1,47	3,68	0,91	7 p
2-sonli OP	543,5	1,08	0,92	5,15	1,09	0,91	12,6	0,91	2,2	1,29	4,03	1,0	5 o'
3-sonli OP	664,3	1,32	0,68	4,16	0,88	1,12	9,0	0,65	2,4	1,41	3,86	0,96	6 o'
4-sonli OP	560,7	1,11	0,89	2,94	0,62	1,38	3,80	0,27	1,7	1,0	3,54	0,88	8 p
5-sonli OP	563,2	1,12	0,88	5,28	1,11	0,89	4,60	0,33	0,5	0,29	2,39	0,59	10 p
6-sonli OP	690,5	1,37	0,63	3,54	0,75	1,25	4,40	0,32	0,7	0,41	2,61	0,64	9 p
7-sonli OP	301,7	0,60	1,40	4,50	0,95	1,05	9,70	0,70	1,5	0,88	4,03	1,0	5 o'
Bo'ston OShP	283,2	0,56	1,44	4,06	0,86	1,14	25,4	1,85	1,5	0,88	5,31	1,32	2 y
G'alaba OShP	363,3	0,72	1,28	2,34	0,49	1,51	13,0	0,94	0,5	0,29	4,02	1,0	5 o'
Do'stik OShP	322,3	0,64	1,36	7,59	1,60	0,40	10,2	0,74	3,5	2,05	4,55	1,13	3 y
N.Maxmudov OShP	747,2	1,49	0,51	3,35	0,70	1,30	23,9	1,74	0,8	0,47	4,02	1,0	5 o'
Sh.Rashidov OShP	299,1	0,59	1,41	2,79	0,59	1,41	13,9	1,01	0,5	0,29	4,12	1,02	4 o'
1-Boyovut 9-bo'lim OShP	463,8	0,92	1,08	8,72	1,84	0,16	25,6	1,86	1,0	0,58	3,68	0,91	7 p
Boyovut tumani	500,8	1,0	1,0	4,72	1,00	1,00	13,7	1,00	1,7	1,00	4,02	1,00	

Jadval Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Ma'lumki, muammolarni atroflicha o'rganishda sotsiologik so'rov usulining ahamiyati katta. So'rovnoma muallif tomonidan Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida bir oy mobaynida (2023-yilning mayida) o'tkazildi. Tadqiqotda Boyovut tumanining "Iftixor", "Markaz", "Bekat", "Yangi Bo'ston", "Laylakko'l" MFYlari tanlab olindi va unda jami 378 nafar respondentlar qatnashdi. Tumanning "Markaz" MFYga sanoat korxonasi ta'siri katta bo'lsa, "Bekat" MFY Sirdaryo-Guliston-Xovos temir yo'lida joylashgan, "Iftixor", "Yangi Bo'ston", "Laylakko'l" MFYlari esa mahalliy avtomobil yo'li chetlarida joylashgan. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda viloyatda garchi bolalar va ayollar o'rtasida o'lim ko'rsatkichlari birmuncha kamayib borayotgan bo'lsa-da, biroq aholining umumiy kasallanish ko'rsatkichlari tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonni hisobga olgan holda, so'rovnoma mazkur tumanning ekologik jihatdan biroz noqulay bo'lgan hududlarida olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, tuman aholisi orasida yurak, qon-tomir, nafas olish tizimi, jumladan, allergik kasalliklar, hamda ko'z kasalliklari ko'rsatkichlari nafaqat viloyatda, qolaversa, qo'shni hududlarga nisbatan ham yuqori.

Tadqiqotda Boyovut tumani nozoekologik vaziyati sotsiologik jihatdan o'rganilish bilan birga, aholi salomatlik darajasi oilaviy poliklinika (OP) va oilaviy shifokorlik punktlari (OShP) kesimida baholandi (3-jadval). Boyovut tumanidagi OPlarda UASh (Umumiy amaliyot shifokori) 26 nafar, pediatr 4 nafar, terapevt, UZI 7 nafar, laborant 5 nafar, akusher-ginekolog, stomatolog shifokorlari, ShTYOB pediatr shifokori, Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada profpatolog, fizioterapevtlar faoliyat olib boradi. Tibbiyot birlashmalarida faoliyat olib borayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni 2020-yilda 886 nafar, 2021-yilda esa 901 nafarni tashkil qildi. Boyovut tumani KTMP (ko'p tarmoqli markaziy poliklinika), OP (oilaviy poliklinika), OShP (oilaviy shifokorlik punkti)lari tibbiy-geografik holatini integral baholashda aholi kasallanishi, o'limi, tibbiy xizmat, ijtimoiy infratuzilma holatlari e'tiborga olindi. Integral baholash indeksi asosida hududlar tibbiy-geografik jihatidan yuqori, o'rta va past darajalarga ajratildi. Bunda yuqori daraja 1,05 koeffitsiyentdan baland, o'rta daraja 0,95-1,05; va past 0,95 koeffitsiyentdan kam deb belgilandi. Tibbiy-geografik jihatdan eng yuqorisi tuman markazidagi KTMP (1,60 koeffitsiyent) hamda tuman markazidan birmuncha uzoqda joylashgan "Bo'ston" (1,32 koeffitsiyent) va "Do'stlik" OShP (1,13 koeffitsiyent) qayd qilindi. Tibbiy-geografik jihatdan eng past ko'rsatkich 5-OP (0,59 koeffitsiyent) da kuzatildi.

Tadqiqotda Sirdaryo viloyati hamda tanlab olingan Boyovut tumani aholisi kasalliklari hududiy tarkibining 2026-yilgacha interval va o'rta muddatli prognozi ishlab chiqildi.

Sirdaryo viloyati aholisining asosiy kasallik guruhlari bo'yicha prognozi:

$$\begin{aligned}
 2021 &= 15304,935 * 2021 - 30510167,1 = 421106,67 \\
 2022 &= 15304,935 * 2022 - 30510167,1 = 436411,60 \\
 2023 &= 15304,935 * 2023 - 30510167,1 = 451716,54 \\
 2024 &= 15304,935 * 2024 - 30510167,1 = 467021,47 \\
 2025 &= 15304,935 * 2025 - 30510167,1 = 482326,41 \\
 2026 &= 15304,935 * 2026 - 30510167,1 = 497631,34
 \end{aligned}$$

Mazkur bobda Boyovut tumani aholisining nozoekologik prognozi ham amalga oshirildi. Bunda bugungi kunda tuman aholisi orasida yetakchilik qiluvchi qon aylanish tizimi, nafas olish a'zolari kasalliklari, allergik, ko'z va uning qo'shimcha kasalliklarining 2025-yilgacha prognozi amalga oshirildi. Bunda yuqoridagi kasallik guruh va turlarining barchasida ko'rsatkichlarning ortib borishi kuzatildi.

Boyovut tumani aholisining allergik kasalliklari bo'yicha prognozi:

$$2021 = 16.309 * 2021 - 32723.909 = 236.76$$

$$2022 = 16.309 * 2022 - 32723.909 = 253.07$$

$$2023 = 16.309 * 2023 - 32723.909 = 269.38$$

$$2024 = 16.309 * 2024 - 32723.909 = 285.69$$

$$2025 = 16.309 * 2025 - 32723.909 = 302.00$$

Dissertatsiya ishida ekonometrik modellashtirish, xususan, chiziqli regressiya tenglamalaridan, statistik gipotezalarni tekshirish hamda interval baholash nazariyasidan foydalanildi.

XULOSA

“Sirdaryo viloyatining nozoekologik vaziyati va aholi salomatligini hududiy xususiyatlari (Boyovut tumani misolida)” mavzusidagi geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

1. Nozoekologiya – aholi orasida uchraydigan kasalliklar, ularning tabiiy o'choqlari, kelib chiqish sabablari va tarqalish qonuniyatlarini o'rganadi. U tibbiyot geografiyasining kasalliklar tarqalishi bilan shug'ullanuvchi asosiy tarmog'i hisoblangan nozogeografiyaning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, ayni vaqtda turli geografik hududlarda tabiiy va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan ekologik o'zgarishlar oqibatida kelib chiqqan kasalliklarning hududiy tarkibini o'rganadi;

2. GAT texnologiyalari asosida nozoekologik vaziyatini asoslovchi (aholi o'limi, kasalliklar sinflari va turlari) geografik ma'lumotlar bazasini yaratish usullari takomillashtirildi. O'zbekistonning nozoekologik vaziyatini asoslovchi veb-atlas tarkibidagi Sirdaryo viloyati hamda Boyovut tumani aholisining salomatligi bilan bog'liq xaritalar ishlab chiqildi. Natijada, web-atlas tarkibidagi mavzuli xaritalarni yaratishda GAT dasturlari asosida mavzuga doir ma'lumotlar bazasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini ishlab chiqish imkonini beradi;

3. O'zbekiston Respublikasi hukumati ochiq ma'lumotlari bazasi, geoinformatsion xaritaga olish usullari va texnologiyalariga asoslangan holda Sirdaryo viloyati hamda Boyovut tumani aholisi kasalliklarining dinamik xaritalari yaratildi. Ushbu dinamik xaritalar orqali aholining umumiy kasallanishi, ayrim kasalliklar salmog'i va dinamik ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini yaratdi;

4. Sirdaryo viloyati nozoekologik vaziyati nuqtayi nazaridan aholi kasallanishi va o'limini erta aniqlash, oldini olish, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, hududlar tabiiy-ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa aholi salomatligini yanada mustahkamlash, aholi orasida kasalliklar salmog'ini kamaytirish imkonini beradi;

5. Tahlillarga ko'ra, viloyatda onalar o'limi har 100 000 tirik tug'ilganlarga nisbatan 1991-yilda 83,6; 2000-yilda 21,0; 2010-yilda 12,3; 2022-yilda 21,4 ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 2022-yilda Sayxunobod tumanida 52,5; Xovos tumanida 44,0; Guliston shahrida 42,2; Boyovut tumanida 33,0 nafarni tashkil etgan va salmog'i bo'yicha respublikada eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Bu esa yuqoridagi tumanlarda ayollar shifokorlari, shuningdek, tor ixtisoslikka doir tibbiy mutaxassislarining oilaviy poliklinika (OP) va oilaviy shifokorlik punktlari (OShP)lardagi salmog'ini oshirishni taqozo etadi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatining ayrim hududlarida aholi umumiy o'lim holatlarining, ayniqsa, go'daklar o'limining yuqoriligi kuzatilmoqda. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Guliston, Yangiyer, Sirdaryo, Shirin kabi sanoat markazlarida mazkur ko'rsatkichlar respublika darajasidan sezilarli yuqori. Shu sababli ko'rsatilgan shaharlarda urboekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, sanoat korxonalari, transport va boshqa infratuzilmalar tizimini to'g'ri hududiy tashkil etish va ekologik omillarga jiddiy e'tibor qaratish zarur;

6. Viloyatda ko'z, allergiya, bronxit singari kasalliklar turlari salmog'i boshqa viloyatlardan birmuncha yuqoriligi ko'zga tashlanadi. Uning o'ziga xos sabablari mavjud. Jumladan, viloyat hududida esuvchi shamollar, shamolning oqibatida vujudga keluvchi nozoiqlimiy vaziyatdir. Ayniqsa, viloyatning Shirin, Guliston shaharlari hamda Xovos, Boyovut tumanlaridagi ko'rsatkichlar nafaqat viloyat, qolaversa respublikada ham oldingi o'rinlarni egallaydi;

7. Tadqiqotda aholining ayrim kasalliklar (nafas olish, ko'z va h.k.) va o'lim holatlarining geografik tafovutlari aniqlandi. Shuningdek, bu holat turkum mavzuli xaritalarda aks ettirilgan bo'lib, hududning nozoekologik vaziyatini baholash imkonini beradi. Bu esa aholi kasallanishining o'zida aks ettirgan 1: 350 000 masshtabli turkum xaritalarda tasvirlandi va foydalanishga tavsiya etildi;

8. Tadqiqot davomida viloyat va tanlab olingan Boyovut tumani nozoekologik holati, aholi kasallanishi bilan aloqador korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash davomida ma'lum bo'ldiki, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorlar va aholining asosiy kasallik sinflari bo'yicha bog'liqlik Cheddok shkalasi bo'yicha to'g'ri proporsional bo'lib, bu ko'rsatkich 0,879 ni tashkil qildi. Xuddi shunday viloyat va tanlab olingan Boyovut tumani bo'yicha qon aylanish, nafas olish, allergik kasalliklar ko'rsatkichlari ham birmuncha yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi;

9. Sirdaryo viloyatida aholi umumiy kasallanishi, ayrim kasallik sinflari va turlarining (qon aylanish tizimi, nafas olish a'zolari, allergik kasalliklari, ko'z va uning qo'shimcha kasalliklari va h.k.) 2026-yilgacha bo'lgan prognozi tumanlar kesimida o'rta muddat uchun ishlab chiqildi. Bunda viloyati aholisining allergik kasalliklar bilan kasallanishi 2021-yildan (1049,53) 2026-yilgacha (1343,7) bo'lgan davrda 1,2 martaga oshish holatlari kuzatildi. Prognozlar natijasida viloyatning Boyovut tumanida ham aholining yuqoridagi kasallik bilan kasallanish holatlari oshish ehtimolligi (2021-yilda 236,76; 2025-yilda esa 302,0) kuzatiladi. Shu bois hududlarda aholi sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ
СТЕПЕНЕЙ № DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЭГАМКУЛОВ ХУСНИДДИН ЭРКАБОВЕВИЧ

**“НОЗОЭКОЛОГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ СЫРДАРЬИНСКОЙ
ОБЛАСТИ (НА ПРИМЕРЕ БАЯУТСКОГО РАЙОНА)”**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертационного исследования доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № В2023.3.PhD/Gr199

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: **Комилова Нилуфар Каршибаевна**
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Турдимамбетов Изимбет Рахметович**
доктор географических наук, профессор

Равшанов Аликул Худойбердиевич
доктор философии по географическим наукам, (PhD)
доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится 9 февраля 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15. Тел.: (99866) 239-16-36; факс: (99866) 239-11-40, e-mail: ik-geografiya2018@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (зарегистрирована под номером №4). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом-15. Тел.: (99866) 239-16-36; факс: (99866) 239-11-40, e-mail: ik-geografiya2018@mail.ru.

Автореферат диссертации разослан 29 января 2024 года.
(Реестр протокола рассылки №54 от 24 января 2024 года)



С.Б.Аббасов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А.Мелиев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии
по географическим наукам, (PhD)

А.Абдулкасимов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день стремительный рост мирового населения, необходимость снижения заболеваемости и смертности в связи с глобальными климатическими изменениями приобретают актуальное значение не только в региональном, но и в международном масштабе. По прогнозам Организации Объединенных Наций (ООН), а также Всемирной Организации Здравоохранения (ВОЗ), к 2048 году общее число смертей во всем мире достигнет 90 миллионов.⁴ Данная проблема в дальнейшем потребует обеспечения населения качественными медицинскими услугами, расширения доступа к ним, стабилизации и улучшения экологического состояния территорий для укрепления здоровья населения, повышения благосостояния и средней продолжительности жизни.

В мире особое значение придается медико-географическим исследованиям, оценивающим территориальные аспекты здоровья населения и болезней, особенно вопросам определения корреляционных связей между продолжительностью жизни населения, показателями смертности и заболеваемости, а также географическими факторами, обеспечивающими непосредственную связь здоровья с экологией. В связи с этим приоритет отдается выявлению связи природных факторов с возникновением болезней, классификации отдельных видов вызываемых ими заболеваний, применению математико-статистических и ГИС-методов при выявлении очагов заболеваний, достижению комплексных решений по предотвращению распространения заболеваний.

В нашей республике реализуется ряд реформ, направленных на дальнейшее укрепление здоровья населения, модернизацию здравоохранения, снижение заболеваемости, охрану материнства и детства, достигаются определенные положительные результаты. В частности, Новая стратегия развития Узбекистана на 2022-2026 годы предусматривает “устранение существующих экологических проблем, наносящих ущерб здоровью населения и генофонду, совершенствование механизмов оценки уровня загрязнения окружающей среды, мониторинг окружающей среды, прогнозирование уровня ее загрязнения, обеспечение постоянного информационного обеспечения государственного экологического контроля, контроль за состоянием источников загрязнения и осуществление мониторинга окружающей среды”⁵. В связи с этим к 2030 году необходимо сократить материнскую смертность на треть, вдвое снизить смертность среди новорожденных и детей в возрасте до пяти лет, снизить уровень заражения населения туберкулезом и ВИЧ, а также обеспечить борьбу с гепатитом и другими инфекционными заболеваниями, передающимися через воду,

⁴ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals file:///C:/Users/User/Downloads/9789240074323-eng.pdf

⁵ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». <http://lex.uz/docs/5841063>

снизить уровень заболеваемости среди населения сердечно-сосудистыми, онкологическими, сахарным диабетом и другими инфекционными заболеваниями а также отдельно были затронуты вопросы 30-процентного снижения преждевременной смертности от хронических респираторных заболеваний. В этой связи важное научно-практическое значение приобретает проведение социально-географических исследований, направленных на комплексное изучение экологического состояния, показателей заболеваемости населения и территориальных проблем Сырдарьинской области, занимающей последнее место по численности и площади населения, особо выделяющейся в нашей республике своими природно-экологическими, социально-экономическими особенностями.

